



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I

2026-yil “09” aprel

101-son

(Ichb)

Toshkent viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatida davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–259-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son, 2022-yil 31-dekabrda “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar” (ro‘yxat raqami 3546, 2024-yil 9-avgust), O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (8-sonli BHS) “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar”ga (ro‘yxat raqami 3144, 2019-yil 22-mart), Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga (ro‘yxat raqami 2169, 2010-yil 22-dekabr) asosan

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Xarid komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati balansida bo‘lgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda – Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish komissiyasi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (Yuldashev) davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni o'z vaqtida va sifatli tashkil etsin.

Bunda Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha mutaxassislarni jalb etish mumkinligi inobatga olinsin.

3. Belgilansinki, xarid qilinadigan tovarlar va boshqa nomoddiy aktivlarning sifati va texnik parametrlarini aniqlash, shuningdek, xarid qilingan tovarlar va boshqa nomoddiy aktivlarning davlat xaridi tartib-taomillarida belgilangan sifat va texnik parametrlarga muvofiqligini aniqlash Ishlarni boshqarish bo'limi tomonidan tegishli bo'linmalarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda:

Agrar sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va raqamlashtirish departamenti boshlig'i – nomoddiy aktivlar, server, kompyuter hamda unga tegishli qurilmalar bo'yicha;

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va texnik modernizatsiyalash boshqarmasi boshlig'i – qishloq xo'jaligi texnikalarini, mashina va mexanizmlar bo'yicha;

Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i – ofis mebellari, maishiy texnikalar, xo'jalik buyumlari, jihozlar va boshqa asosiy vositalar bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

4. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (8-sonli BHS) "Ko'chmas mulk, bino va jihozlar"da (ro'yxat raqami 3144, 2019-yil 22-mart) yuklatilgan vazifalarning to'liq va sifatli bajarilishini hamda ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini taminlasin.

5. Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (Pardayev): qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil qilsin;

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffoqligini ta'minlasin;

tanlovda g'olib deb topilgan ishtirokchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilsin;

tovar-moddiy qimmatliklarning kirim qilinishi, topshirilishi va hisobdan chiqarilishini to'g'ri rasmiylashtirishda belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda vazirlik balansidan o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilishini nazorat qilsin.

6. Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i (A.Akbarov)ga vazirlik faoliyati uchun xarid qilingan va foydalanishda bo'lgan tovar-moddiy qimmatliklarni belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o'tkazish, shuningdek, xizmat muddatini o'tagan tovar-moddiy qimmatliklarni va asosiy vositalarni hisobdan chiqarish komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritish vazifalari yuklatilsin.

7. Vazirlik tizimidagi barcha tashkilot rahbarlari va bosh hisobchilari tashkilot balansidagi asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlarining qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi hamda ma'lumotlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 26-iyundagi "Vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar, xizmatlar xaridi hamda asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi 168-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Qosimov zimmasiga yuklansin.

Vazir



I. Abduraxmonov

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparatida
davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish
bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparatida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Xarid komissiyasi) vazifalari va funksiyalarini, faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Xarid komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022 yil 31 dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi, shuningdek, xarid ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi.

3. Xarid komissiyasi davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish chog'ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o'tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

4. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

5. Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida faoliyat ko'rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

6. Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

7. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

8. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek, xarid komissiyasi

majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

9. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi.

10. Xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

11. Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirlikida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

12. Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni, tenderni va ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

13. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etishi mumkin.

14. Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

15. Xarid komissiyasi to'g'ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas'uldir.

16. Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

17. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.

18. Xarid komissiyasi a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

19. Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

20. Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

21. Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliliigi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

22. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

23. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

2-bob. Komissiya a'zolarining vazifalari va funksiyalari

24. Davlat xaridlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022-yil 31-dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi, shuningdek, xarid ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi.

25. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.

26. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

27. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta'minlanadi.

28. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi ho'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

29. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tanlashni o'tkazish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

30. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo'yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

3-bob. Komissiya a'zolarining asosiy funksional vazifalari

31. Komissiya raisi:

- Komissiya a'zolari ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, komissiya a'zolariga xizmat vazifalarini taqsimlab beradi;

- Davlat xaridlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022-yil 31-dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi, shuningdek, xarid ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi;

- ishtirokchilarning takliflarini tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi;

- tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritilishini nazorat qiladi;

- Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi;

- Elektron bayonnomalarni ERIdan foydalangan holda imzolaydi.

32. Komissiya a'zolari:

- davlat xaridlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022-yil 31-dekabrdagi “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi, shuningdek, xarid ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi;

- davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining har bir a‘zosi o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

- tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi a‘zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolanadi.

- xarid komissiyasi a‘zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig‘ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko‘chirma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e‘lon qilinadi;

- tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va kelishadi;

- miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi;

- dastlabki elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi;

- agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e‘tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi;

- tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e‘tirozlar tushganda ushbu e‘tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

33. Mas‘ul kotib:

- davlat xaridlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022-yil 31-dekabrdagi “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi, shuningdek, xarid ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etadi;

- davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining mas‘ul kotibiga o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

- ishtirokchilarning takliflarini tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

- tanlash asosida xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.

- Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.

- Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi;

- Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi;

4-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

34. Komissiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom hamda 2022-yil 31-dekabrda "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 734-son qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritadi va Vazirlik rahbariyatiga hisob beradi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

35. Xarid komissiyasi faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirining
2026 yil " 9 " aprel dagi 101 -son buyrug'iga
2- ilova

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparatida davlat
xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
xarid komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi:			
1	I.Abduraxmonov		Vazir
Komissiya raisi o'rinbosari:			
2	Q.Yuldashev	-	Vazir o'rinbosari
3	A.Qosimov		Vazir o'rinbosari
Komissiya a'zolari:			
4	S.Qulmirzayev	-	Agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish departament boshlig'i
5	I.Ikramov	-	Agrar sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va raqamlashtirish departamenti boshlig'i
6	Y. Pardayev	-	Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i
7	O. Albekov	-	Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – bosh hisobchi
8	U.Burxonov		Yuridik ta'minlash boshqarmasi boshlig'i
9	A. Akbarov		Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i
10	K.Egamqulov		Budjet qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'limi yetakchi mutaxassisi
11	L.Xayriyeva		Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi bosh mutaxassisi (Komissiya kotibasi ovoz berish huquqisiz)

Izoh:

Komissiya raisi, yoki komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan mas'ul shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.

Xarid turlari, olinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiyatiga qarab Xarid komissiyasi tarkibiga tegishli bo'linmalardan mutaxassislar jalb qilinishi inobatga olinsin;

Taklif so'rovi xaridini amalga oshirishda komissiya a'zolaridan shartnomaga tegishli bo'linma elektron imzolashi inobatga olinsin.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirining
2026 yil " 9 " aprel dagi 101 -son
buyrug'iga
3- ilova

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati balansida
bo'lgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya**

TARKIBI

Komissiya raisi:			
1	A.Qosimov		Vazir o'rinbosari
Komissiya a'zolari:			
2	S.Qulmirzayev	-	Agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish departament boshlig'i
3	I.Ikramov	-	Agrar sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va raqamlashtirish departamenti boshlig'i
4	O. Albekov	-	Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – bosh hisobchi
5	N. Tashmatov	-	Budjet qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'limi boshlig'i
6	R.Sultonov		Yuridik ta'minlash boshqarma boshlig'i o'rinbosari
7	A. Akbarov		Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i
8	L.Xayriyeva		Moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi bosh mutaxassisi
9	I.Arolov		Xo'jalik mudiri (Komissiya kotibasi ovoz berish huquqisiz)

Izoh:

Komissiya raisi, yoki komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan mas'ul shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.